

Rag'batlantiradigan aktsiya – BirBirimizga estafetasini o'tkazish qoidalari

08.05.2025

Toshkent sh.

1. Umumiy qoidalari

1.1. Mazkur Rag'batlantiradigan aktsiya – BirBirimizga estafetasini o'tkazish qoidalari (bundan buyon matnda – “Qoidalari”) jismoniy shaxslar o’rtasida shaxsiy (oldin ishlatalig) buyumlar savdo-sotig’iga ko’maklashish, shuningdek BirBir platformasidan Foydalanuvchilar, Qatnashchilar sonini oshirish maqsadida “Internet” axborot-telekommunikatsiya tarmog’ida o’tkaziladigan rag'batlantiradigan aktsiya – BirBirimizga estafetasida (bundan buyon matnda – “Estafeta”) yuridik salohiyatlari jismoniy shaxslarning (bundan buyon matnda – “Ishtirokchi”, “Ishtirokchilar”) ishtirok qilish tartibini belgilaydi (1).

1.2. «DOSKA» MChJ (bundan buyon matnda – “Kompaniya”), Ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor Andrey Pavlovich Tereshin nomidan, Instagram ijtimoiy tarmog’ida Kompaniyaning rasmiy akkaunti administratori sifatida o’z nomidan faoliyat yurituvchi BirBir platformasi – @birbir.uz (bundan buyon matnda – “BirBir akkaunti”) egasi Estafeta tashkilotchisi hisoblanadi.

1.3. Qoidalari O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda – “O’zR FK”) 367-moddasiga asosan ommaviy oferta hisoblanadi. Ishtirokchi tomonidan Estafetada ishtirok qilishga qaratilgan harakatlarning amalga oshirilishi mazkur Qoidalari aktsepti deb e’tirof qilinadi.

1.4. Estafetada ishtirok qilish bepul asosda amalga oshiriladi, Ishtirokchilar o’rtasida bitimlar tuzish bo’yicha majburiyatlarni va bevosita Ishtirokchi tomonidan Estafetaning har qanday moliyalashtirilishini nazarda tutmaydi.

2. Estafetada ishtirok qilish shartlari

2.1. Estafetada ishtirok qilish uchun Ishtirokchi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

- O’z tarixiga ega shaxsiy ashyolarni (bundan buyon matnda – “Ashyolar”) tanlash, masalan:

 Birinchi uchrashuvdagagi krossovkalar;

 Birinchi qishdagi palto;

 Ishtirokchini o’zgartirgan kitob.

- BirBir platformasida Ashyolar savdo-sotig’i to’g’risida e’lonni joylashtirish;

- E’londa quyidagilarni qayd etish: Ashyo nomi va ta’rifi, narxi, aloqa bog’lash usuli, xeshteg #BirBirimizga (o’zbek tilida);

- E’lonni joylashtirishda <https://birbir.uz/ru/legal> manzili bo’yicha Internet tarmog’iga joylashtirilgan barcha hujjatlar bilan tanishib chiqish va ularni aktseptlash;

- Instagram ijtimoiy tarmog’i talablariga asosan Reels yoki Stories formatida qisqa metrajli videorolik (bundan buyon matnda – “Videokontent”) olish, uni o’z nomidan Instagram ijtimoiy tarmog’idagi shaxsiy akkauntiga joylashtirish, Videokontentda BirBir akkauntini belgilash yoki BirBir akkaunti shaxsiy xabarlariga (direkt) Videokontentga havolani yuborish;

- Eng kamida 2 (ikki) boshqa potentsial Ishtirokchiga Estafeta o’tkazilishi to’g’risida ma’lum qilish (og’zaki, yozma shaklda yoki Instagram ijtimoiy tarmog’ida eslatma berish / qayd etish orqali).

2.2. Har bir Ishtirokchi mazkur Qoidalarga va <https://birbir.uz/ru/legal> manzili bo'yicha Internet tarmog'iga joylashtirilgan hujjatlar shartlariga rioya qilingan holatda, cheklanmagan sonli E'lolar va Videokontentni joylashtirishga haqli.

2.3. Kompaniya Estafeta Ishtirokchisiga Estafeta o'tkazilishi to'g'risida boshqa potentsial Ishtirokchiga "Sen boshqa ishtirokchiga nima uzatasan?" savoli bilan ma'lum qilishni tavsiya etadi.

3. Sovrinli o'yinni o'tkazish va unda ishtirok qilish shartlari

3.1. Kompaniya ma'lum qiladiki, Estafetaning har bir Ishtirokchisi, "yulduz ishtirokchilar"dan tashqari (2), Kompaniyadan ham, "yulduz ishtirokchilar"dan ham, shu jumladan homiylardan esdalik sovg'alari mavjud bo'lgan va Estafeta Ishtirokchisi tomonidan mazkur Qoidalarga rioya qilingan holatda, avtomatik ravishda ushbu sovrinli o'yin Ishtirokchisiga aylanadi.

3.2. Sovrinli o'yin BirBir akkauntida bevosita efirda o'tkaziladi. Sovrinli o'yinni o'tkazish vaqtি BirBir akkauntida sovrinli o'yin boshlangungacha eng kamida 24 (yigirma to'rt) soat oldin ma'lum qilinadi.

3.3. Sovrinli o'yinni tashkillashtirish uchun Kompaniya tomonidan mazkur Qoidalalar talablariga javob beradigan Estafeta Ishtirokchisining har bir E'lona tartib raqamli identifikatsiyalash raqami (bundan buyon matnda – "ID") beriladi, masalan, ID 000001.

3.4. Sovrinli o'yinda E'lolariga ID berilgan Ishtirokchilar ishtirok qiladilar. Ishtirokchi E'lona ID berilganligi to'g'risida Kompaniya Ishtirokchini har qanday foydalanish mumkin bo'lgan usul yordamida, ko'proq "xavfsiz chat" shaxsiy xabarlariga (3) va/yoki Instagram ijtimoiy tarmog'ida shaxsiy xabarlariga (direkt) axborot yuborish orqali xabardor qiladi. Estafeta Ishtirokchisi Estafeta o'tkazilish davrida BirBir platformasida o'z akkauntidagi chat shaxsiy xabarlarini ham, Instagram ijtimoiy tarmog'ida o'z akkaunti direktini ham mustaqil ravishda, muntazam tartibda tekshirish majburiyatini oladi. Kompaniya Ishtirokchi ID berilganligi to'g'risida xabardor qilinishi va Ishtirokchi tomonidan BirBir platformasida va/yoki Instagram ijtimoiy tarmog'ida o'z akkaunti shaxsiy xabarları (chat va/yoki direkt) tekshirilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.5. Ashyolar Estafetada qatnashishga qaror qilgan jismoniy shaxs uchun esdalik bo'lishi mumkinligiga, biroq, bunda BirBir qoidalari asosan E'londa joylashtirishga taqiqlangan bo'lishiga qaramay, Videokontentda suratga olingan holatda, bunday E'lon ID berilishida avtomatik ravishda ishtirok qilmaydi, Ishtirokchining o'zi esa ham Estafeta, ham sovrinli o'yin Ishtirokchilari tarkibidan chiqarib yuborilishi mumkin.

3.6. Agar Estafeta Ishtirokchisi "yulduz ishtirokchi" hisoblanmasa va/yoki mazkur Qoidalarda belgilangan boshqa cheklolvarga daxldor bo'lmasa, bunday Ishtirokchida sovrinli o'yinda g'olib bo'lgan holatda "yulduz ishtirokchi"dan esdalik sovg'asini olish imkoniyati bo'ladi.

3.7. "Yulduz ishtirokchi" Estafetada sovrinli o'yinga homiylik qiladigan shaxs sifatida ishtirok qiladi.

3.8. Estafeta Ishtirokchilari ma'lumotlari "Shaxsiy ma'lumotlar" ta'rifiga tegishli ekanligi, sovrinli o'yin esa har qanday turdagи til biriktirish va/yoki manfaatlar to'qnashuvini istisno qilish maqsadida BirBir akkauntida bevosita efirda o'tkazilishi tufayli sovrinli o'yin o'tkazilishida g'olib ID e'lon qilinadi, sovrinli o'yin ishtirokchilari ro'yxati esa (4) sovrinli o'yin paytida tegishli sovrinli o'yin barcha ishtirokchilari ID shaklida tuziladi va ommaviy namoyish etiladi.

3.9. Sovrinli o'yinni o'tkazish tartibi.

Kompaniya o'z vakiliga quyidagi vakolatlarni beradi (5):

- BirBir akkauntida bevosita efirda esdalik sovg'alari o'ynalishini o'tkazish;

- sovrinli o'yin g'olibiga Ishtirokchi tomonidan E'ltonni joylashtirishda qayd etilgan telefon raqamlari bo'yicha qo'ng'iroqni amalga oshirish;

- uyali aloqa operatori tomonidan belgilangan vaqt davomida sovrinli o'yinning birinchi g'olibidan (6) telefon qo'ng'irog'iga javob bo'lmanan holatda, sovrinli o'yinning ikkinchi g'olibiga (7) telefon qo'ng'irog'ini amalga oshirish;

3.10. Sovrinli o'yin randomayzerdan foydalanilgan (8) yoki lototrondan foydalanilgan (9) holda o'tkazilishi yoxud bevosita Kompaniya tomonidan BirBir akkauntida yoki boshlovchi tomonidan sovrinli o'yin o'tkazilishida ma'lum qilingan (o'qib eshittirilgan) har qanday boshqa taqiqlanmagan usulda, biroq har qanday holatda ham tasodifiy raqamlar mexanikasi (generatori)dan (10) foydalanilgan holda o'tkazilishi mumkin.

3.11. Kompaniya sovrinli o'yin kunida eng kamida 3 (uch) nafar Ishtirokchidan telefon qo'ng'irog'iga javob bo'lmanan holatda, sovrinli o'yinni o'tkazilmagan deb e'tirof qilish huquqini o'zida qoldiradi.

3.12. Kompaniya har bir Ishtirokchining haqiqiy yoshidan xabardor bo'lmasligi sababli har qanday yuridik salohiyatsiz jismoniy shaxs Estafeta Ishtirokchisi bo'lishi mumkinligi tufayli 14 (o'n to'tt) yoshga to'lgan, biroq 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lmanan Ishtirokchi sovrinli o'yin g'olibi bo'lgan holatda esdalik sovg'asi bunday g'olibning qonuniy vakiliga topshiriladi.

3.13. Agar Kompaniya xodimi va/yoki Kompaniyaning affillangan shaxsi xodimi, yoxud Kompaniyaga, yoxud Kompaniyaning yakuniy benefitsiariga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan boshqa shaxs Estafeta Ishtirokchisiga aylansa, bunday shaxs sovrinli o'yinda ishtirok qilayotgan Estafeta ishtirokchilar tarkibidan avtomatik ravishda chiqarib yuboriladi.

3.14. Sovrinli o'yinning sovin fondini BirBir platformasi Foydalanuvchilarini rag'batlantirish (sonini oshirish) uchun Kompaniyaga berilgan "yulduz ishtirokchilar" shaxsiy ashyolari tashkil etadi, shuningdek Kompaniya homiyalaridan boshqa ashyolarni ham o'z ichiga olishi mumkin. "Yulduz ishtirokchilar" ishtiroki reklama xususiyatiga ega.

3.15. Sovrinli o'yin O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 07 iyundagi "Reklama to'g'risida"gi O'zRQ-776-sonli Qonuni 21-moddasiga asosan rag'batlantiradigan aktsiya hisoblanadi va hech qanday vaziyatlarda lotereya, qimor o'yini sifatida yoki qayd etilgan Qonunning 21-moddasida belgilanganidan boshqacha ravishda talqin qilinishi mumkin emas.

3.16. Esdalik sovg'asini yetkazib berish, agar sovrinli o'yin o'tkazilishi vaqtida boshqa qoida e'lton qilinmagan bo'lsa, bevosita Ishtirokchi – sovrinli o'yin g'olibi kuchlari va hisobidan amalga oshiriladi (11).

3.17. Kompaniya sovrinli o'yin o'tkazilish paytining video va/yoki audio yozuvini amalga oshirishga va kelgusida bunday yozuvni BirBir akkauntida va/yoki BirBir platformasida ham butunligicha, ham qisman namoyish etishga haqli. Bunday yozuv rag'batlantiradigan aktsiya arxivini saqlash, shuningdek reklama maqsadlarida ham butunligicha, ham qisman namoyish etish uchun amalga oshiriladi.

3.18. Estafeta tugaganidan so'ng BirBir platformasida o'z shaxsiy Ashyolar savdo-sotig'i to'g'risida e'ltonni joylashtirgan jismoniy shaxs bunday E'london xeshtegni va/yoki bevosita E'ltonni olib tashlashga haqli emas (12), biroq, bunda Estafeta tugaganidan so'ng sovrinli o'yinlar o'tkazilmaganligi tufayli endilikda sovrinli o'yin ishtirokchisi emasligini anglagan holda, qonuniy asoslarda bunday ashyoning boshqa shaxs ixtiyoriga berilishini davom ettirishga haqli.

4. Cheklanishlar va javobgarlik

4.1. E'londa va Videokontentda quyidagilarni joylashtirish mumkin emas:

- tijorat olibsotarlik maqsadida yangi tovarlar;
- qonun hujjatlarida oboroti taqiqlangan yoki cheklangan tovarlar (qurol, dori preparatlari, alkogol va b.);
- begona ashylar ular egasining roziligidiz;
- mualliflik huquqlarini va boshqa uchinchi shaxslar huquqlarini buzadigan kontent.

4.2. Kompaniya oldi-sotdi bitimlarida ishtirok qilmaydi, E'lonlar shubhasiz to'g'rilingini tekshirmaydi hamda Ishtirokchilar va Manfaatdor shaxslar (Interesantlar) o'rtasidagi kelishuvlar oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi (13).

4.3. Kompaniya Ishtirokchi xabardor qilinmagan holda mazkur Qoidalarni buzadigan E'lonni olib tashlashga va Videokontent (14) yuzasidan shikoyat qilishga haqli.

4.4. Ishtirokchi E'lon va/yoki Videokontentning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shu jumladan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar, reklama va h.k. to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi.

4.5. Kompaniya Estafetaning har qanday Ishtirokchisi oldida quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi va boshqa hech qanday javobgar bo'lishi mumkin emas:

- Ishtirokchilar akkauntlaridagi Instagram ijtimoiy tarmog'i har qanday foydalanuvchisidan SPAM (15) va/yoki yuqori ham ijobiy, ham negativ (salbiy) fikr-mulohazalar;
- Instagram ijtimoiy tarmog'ida va/yoki uning tashqarisida Ishtirokchilar akkauntlariga DoS-hujumlar (16);
- Instagram ijtimoiy tarmog'ida ham, uning tashqarisida ham har qanday Ishtirokchi, shu jumladan "yulduz ishtirokchi"ning ehtimoliy ta'qib qilinishi;
- uchinchi shaxslarning Estafeta Ishtirokchisi bilan munosabatlaridagi va/yoki unga nisbatan boshqa harakatlari.

5. Shaxsiy ma'lumotlarni ishslash uchun rozilik

5.1. Ishtirokchi Estafetada ishtirok qilish orqali Kompaniya tomonidan o'z shaxsiy ma'lumotlarining quyidagi maqsadlarda ishlanishiga rozilik bildiradi:

- Estafetada ishtirok qilishni ta'minlash;
- E'lonlarni joylashtirish;
- Estafeta jarayoni to'g'risida xabardor qilish va potentsial ishtirokchilarni Estafeta o'tkazilishi to'g'risida xabardor qilish;
- Ishtirokchi bilan qayta aloqa bog'lash;
- mazkur Qoidalar talablariga rioya qilinishini ta'minlash.

5.2. Mazkur Qoidalar doirasida shaxsiy ma'lumotlar deyilganida Ishtirokchini bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini beradigan har qanday axborot tushuniladi, shu jumladan: ism-sharifi (taxallusi), telefon raqami, messendjerdagi login, elektron pochta manzili, fotosurat va boshqa taqdim qilingan ma'lumotlar.

5.3. Shaxsiy ma'lumotlarni ishslash har qanday harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, tarqatish (shu jumladan, uzatish), egasiz qilib qo'yish, blokirovka qilish va yo'q qilish orqali amalga oshiriladi.

5.4. Qayd etilgan rozilik mazkur Qoidalar aktseptlangan paytdan e'tiboran Ishtirokchi tomonidan Kompaniyaga elektron pochta manziliga bildirish xatini yuborish orqali ushbu rozilik qaytarib olinadigan paytgacha amal qiladi.

5.5. Shaxsiy ma'lumotlarni ishslash uchun rozilik qaytarib olingan holatda, Ishtirokchi Estafetada ishtirok qilish huquqini yo'qotadi, uning E'loni esa olib tashlanishi mumkin.

6. Boshqa shartlar

6.1. Estafeta O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi. Biroq, agar Videokontent boshqa davlat hududidan ko'rib chiqilsa va Manfaatdor shaxs #BirBirmizga (o'zbek tilida) xeshtegi bo'yicha materiallar to'plamidan E'londagi ashyoni xarid qilishga qaror qilsa, qabul qilingan qarorni realizatsiya qilish bilan bog'liq barcha tegishli xarajatlar Manfaatdor shaxs tomonidan qoplanadi.

6.2. Kompaniya Estafeta Ishtirokchilariga Estafetada ishtirok qilishning o'zi Manfaatdor shaxslarning xarid qilish qobiliyatini oshirishiga va Estafetada ishtirok qiladigan Ashyo Estafeta davrida ham, Estafetadan keyin ham realizatsiya qilinishiga hech qanday kafolatlar bermaydi.

6.3. Estafeta faqat reklama xususiyatiga ega va BirBir tovar belgisi, shuningdek BirBir platformasidan xabardor bo'lish darajasini oshirishga yo'naltirilgan.

6.4. Estafeta quyidagi davrda: 2025 yil 08 maydan 2025 yil 15 iyungacha o'tkaziladi.

6.5. Kompaniya Estafeta Ishtirokchilarini Videokontentini BirBir akkauntida va/yoki BirBir platformasida ham butunligicha, ham qisman joylashtirish (takrorlash) huquqini o'zida qoldiradi.

6.6. Kompaniya muddatsiz asosda quyidagilarni amalga oshirish huquqini o'zida qoldiradi:

- Estafeta Ishtirokchilarining barcha Videokontentini BirBir akkauntida "Aktual" to'plamida saqlash;
- Estafeta Ishtirokchilarining barcha E'lolarini BirBir platformasida #BirBirmizga (o'zbek tilida) xeshtegi bo'yicha alohida materiallar to'plamida saqlash.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Qoidalar BirBir platformasida e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va Estafeta tugagan paytgacha yoxud Kompaniya tomonidan ular qaytarib olingungacha yoki o'zgartirilgungacha amal qiladi.

7.2. Kompaniya BirBir platformasida va BirBir akkauntida aktual tahrirni joylashtirish orqali mazkur Qoidalarga bir tomonlama tartibda o'zgartishlar kiritishga haqli.

7.3. Ishtirokchilar o'zgartishlarni mustaqil ravishda kuzatib borish va ularga rioya qilish majburiyatini oladilar.

7.4. Shuningdek, Estafeta o'tkazilishi, Kompaniya fikricha, O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosini iste'molga va pulning asossiz sarflanishiga yanada mas'uliyatli munosabatda bo'llishga rag'batlantiradi va buning oqibati sifatida – kambag'allikka qarshi kurashishda yordam beradi.

7.5. Mazkur Qoidalar bilan hal qilinmagan barcha holatlarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

(1) BirBir mobil ilovasi va Internet tarmog'ida www.birbir.uz manzili bo'yicha joylashtirilgan sayt.

(2) Mazkur Qoidalar maqsadlarida "yulduz ishtirokchilar" atamasi quyidagi ma'noga ega: blogerlar (Instagram ijtimoiy tarmog'ida 2 (ikki) ming nafar va undan ko'proq obunachilar), inflyuenserlar (Instagram ijtimoiy tarmog'ida 100 (yuz) mingdan ko'proq obunachilar soni bilan fikrlar yetakchilar),

blogerlar-millionchilar (Instagram ijtimoiy tarmog'ida obunachilar soni 1 (bir) milliondan ko'proq), ommaviy shaxslar (sportchilar, tadbirkorlar, tele-, radioboshlovchilar va O'zbekiston Respublikasi hududida mashhur bo'lgan boshqa shaxslar).

- (3) BirBir platformasida shakllanadigan va O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdagi "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida"gi 439-II-sonli Qonuniga asosan xavfsiz hisoblangan chat.
- (4) Shuni e'tiborga olish kerakki, Estafetaning ba'zi Ishtirokchilari sovrinli o'yin ishtirokchisiga aylanmasligi mumkin. Mazkur Qoidalarni diqqat bilan o'qib chiqish kerak.
- (5) Sovrinli o'yin o'tkazilishi paytida boshlovchi rolini ijro etuvchi shaxs.
- (6) Sovrinli o'yin g'olibi deb e'tirof qilingan Estafeta Ishtirokchisi.
- (7) Sovrinli o'yinning "birinchi g'olibi" telefon qo'ng'irog'iga javob bermaganligi tufayli sovrinli o'yin takroriy o'tkazilganidan so'ng g'olib bo'lgan Estafeta Ishtirokchisi.
- (8) Qurilma yordamida faqat tasodifylik asosida oqilona ravishda oldindan taxmin qilinishi mumkin bo'lgan raqamlar yoki belgilar ketma-ketligi yuzaga keltiriladigan jarayon. Tasodify raqamlar generatorlari jismoniy muhit biron-bir belgisining joriy ma'nosiga qarab tasodify raqamlarni yuzaga keltiradigan, joriy bilimlar darajasida modellash deyarli mumkin bo'lмаган "tasodify raqamlar apparat generatorlari"ga va tasodify ko'rindigan, biroq, agar soxta-tasodify raqamlar generatori ishlashi uchun asos hisoblangan model ma'lum bo'lsa, aslida aniqlangan va qayta yuzaga keltirish mumkin bo'lgan raqamlarni yuzaga keltiradigan soxta-tasodify raqamlar generatorlariga bo'linadi.
- (9) Lototron – qabul qilish lotogiga raqamlangan sharlar va/yoki kartochkalarni uzatadigan aralashtirish tizimli avtomatik qurilma.
- (10) Sovrinli o'yinni o'tkazadigan shaxs tomonidan tanlanadigan raqam oldindan noma'lum bo'ladigan "taqdir taqozosi" formatida tasodify tanlov.
- (11) Sovrinli o'yin o'tkaziladigan kun.
- (12) Kompaniya BirBir platformasida bunday Ishtirokchi Akkauntini blokirovka qilish huquqini o'zida qoldiradi.
- (13) Mazkur Qoidalarda qayd etilgan xeshteglar bo'yicha to'plamdan Ashyoni xarid qilish istagini bildirgan shaxslar.
- (14) Instagram ijtimoiy tarmog'i qoidalariiga asosan.
- (15) Bildirish xatlarini oluvchining roziligidan ommaviy tarqatish, shuningdek veb-resurslarda xavfli zararli havolalarini joylashtirish.
- (16) (inglizcha Denial of Service – "xizmat ko'rsatishni rad qilish") – hisoblash tizimini ishdan chiqarish maqsadida ushbu tizimga xakerlik hujumi.